

UDK: 619:636.5

**KURKALAR GISTOMONozINI TARQALISHI
VA DAVOLASHDA METRONIDAZOL VA FURAZOLIDON
PREPARATLARINING SAMARADORLIGI**

A.A. Abduraimov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti - magistranti.

B.S. Rustamov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti - v.f.f.d.

A.N. Xudjamshukurov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti - v.f.f.d.

АННОТАЦИЯ

В статье приведены эпизоотологические данные, течение и симптомы, болезни. Патологические изменения кожи внутренних органов, диагностика гистомоноза и меры борьбы, профилактика паразитарных заболеваний индюков.

Kalit soʻzlar: enterogepatit, kurka, gistomonada, protozoy, metronidazol, furazolidon, NH₃, H₂S, SO₂.

ABSTRACT

In thy article was given epizootological facts, symptoms, pathological changing in skin and organs, diagnostics hystomonosis, measures prevention parazitalogicaldiacases of turkey.

Keywords: enterohepatitia, current, tendency, protozoa, metronidosol, furasolidon, NH₃, H₂S, SO₂.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga moʻljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan taminlash boʻyicha izchil chora-tadbirlar amalga

oshirilmoqda. “Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018 yilning 13 noyabrda PQ-4015-son 2021 yil 14 iyundagi PQ-5146-son “Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida parrandachilikni rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab berilgan. Xususan, endilikda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanib parrandachilik klasterlari tashkil qilinib, bunda innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilmoqda.

Gistomonoz (tifli gepatit, enterogepatit, “qoniqarsiz saqlanish”, “qora bosh” kasalligi) kurkalarining protozooz (bir hujayrali) kasalligi bo‘lib, oshqozon ichak, jigar, ko‘richak, ayrim paytlarda taloq yallig‘lanishi bilan kechadi. Bundan tashqari, bosh terisining ko‘karishi kuzatiladi. Kurkachilik xo‘jaliklarida kasallik aniqlanganda, uning oqibatidagi iqtisodiy zarar parrandalarning o‘limi (40 % gacha) jo‘jalarning o‘shish rivojlanishdan ortda qolishi, diagnostik tekshiruv, davolash muolajalari, veterinariya sanitariya tadbirlarini o‘tkazishga sarflanadigan xarajatlar hisobidan katta qiymatni tashkil qiladi. SHu bilan birgalikda gistomonoz yoppasiga va tez tarqaluvchi epizootik xavfli kasallik hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Respublikamizda parazitar kasalliklarning tarqalishi ekstensivligining ortishi, shaxsiy xo‘jaliklarda parrandachilikning rivojlanishi, aholining parrandachilikka oshayotgan qiziqish sharoitida ushbu xo‘jaliklarda saqlash va oziqlantirish talab darajasida emas va veterinariya xizmati yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, invazion kasalliklar shu jumladan gistomonozning tarqalishi etarli darajada o‘rganilmaganligini inobatga olgan holda kurkalarining gistomonoz kasalligini epizootologiyasi hamda davolash ishlarini takomillashtirilishi tadqiqotlarimizning maqsadi xisoblanadi.

Tadqiqot vazifasi sifatida kurkalar gistomonozini tarqalishi va davolashda metronidazol va furazolidon preparatlarining samaradorligi aniqlandi. Metronidazol protozoalarga va mikroblarga qarshi samarali keng tasir doirasiga ega vositadir. Preparatning tasir mexanizmi mikroorganizmlar va bir hujayrali sodda organizmlarning hujayra ichki transport proteinlari tomonidan biokimyoviy jihatdan qaytarilishi bilan bog‘liq. Furazolidon dizenteriya, paratif, ovqat toksikoinfeksiyalari, lyamblioz, gistomonadali invaziyalar va boshqa mikroorganizmlar chaqirgan kasalliklarni davolash uchun qo‘llaniladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA TEKSHIRISH USLUBLARI

Tadqiqot obekti sifatida Samarqand viloyatining ayrim tumanlari, xususan Pstdarg‘om tumanidagi shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar qaramog‘idagi kurkachilik fermalaridan 106 bosh 40-50 kunlik kurka jo‘jalaridan olingan tezak namunalari Darling usuli bo‘yicha kaprologik tekshiruvdan o‘tkazildi.

1 jadval

Kurka jo‘jalarini gistomonozga diagnostik tekshirish natijalari

Jami namuna-lar soni	Gistomonoz		Gistomonoz va boshqa 2 invaziya		Eymerioz		Eymerioz + gistomonoz		Jami gistomonoz va boshqa birgalikda	
	Namuna soni	Invaziyaning ekstsivligi, %	Namuna soni	Invaziyaning ekstsivligi, %	Namuna soni	Invaziyaning ekstsivligi, %	Namuna soni	Invaziyaning ekstsivligi, %	Namuna soni	Invaziyaning ekstsivligi, %
106	40	37.8	19	17.9	16	15.1	19	17.9	59	55.7

Jadval malumoti bo‘yicha kurka jo‘jalarining axlat va ichki organlardagi patologoanatomik o‘zgarishlarga asoslanganda faqat gistomonoz bilan zararlanish 37.8% (40 ta namuna), aralash invaziya: gistomonoz+eymerioz 17.9 % holatlarda (19 ta namuna), eymerioz bilan zararlanish 15.1 % (16 ta namuna) uchragan. Jami gistomonoz va aralash invaziya bizning tadqiqotimizda 55.7 % holatda (59 ta namuna) aniqlandi.

Kelgusidagi tekshiruvlar uchun 5 bosh sog‘lom, 15 bosh gistomonoz bilan zararlangan kurka jo‘jalari ajratib olindi.

Ajratilgan jo‘jalar Samarqand veterinariya meditsinasi instituti vivariysidagi kichik parrandaxonada tajriba uchun saqlash sharoitida: beton polda 5-7 sm qalinlikdagi yog‘och qipig‘i to‘shamali va guruxlar o‘rtasidagi ajratma to‘siqlar yaxlit holatdagi xonada, 25 sm balandlikda qo‘ndoqlar o‘rnatilgan 1.5 kv/m maydonda 5 boshdan joylashtirildi. Bino havosidagi gaz tarkibi meyordan yuqori bo‘lmagan parametrlarda SO_2 –0.17 %, NH_3 – 0.015mg/l, H_2S – 0.005mg/l saqlandi. Tajriba davomida bino harorati 22⁰S da saqlandi. Oziqlantirish 3 maxal, bir boshga kunlik 100 gr makajo‘xori va bug‘doy yormasi berildi, suv ichishi ehtiyoji uzluksiz taminlandi.

Tajriba uchun keltirilgan kurka jo‘jalari analoglar qoidasi bo‘yicha 4 guruhga ajratildi:

1-sog‘lom nazorat guruhiga 5 bosh sog‘lom kurka jo‘jalari olindi;

2-kasallangan nazorat guruhida 5 bosh kasal kurka jo‘jalari (gistomonoz tashxis qilingan va tajriba davomida davolanmagan);

3- tajriba guruhida 5 bosh kurka jo‘jalari (gistomonoz kasalligi aniqlangan, metronidazol qo‘llanilgan);

4- tajriba guruhida 5 bosh kurka jo‘jalari (gistomonoz kasalligi aniqlangan, furazolidon qo‘llanilgan).

3 - va 4 - tajriba guruhidagi kurka jo‘jalariga 8 kun davomida quyidagi holatda dorilar sinovdan o‘tkazildi:

- Metronidazol 0.5 gr 1 kg omuxta emga 8 kun davomida;
- Furazolidon 0.5 gr 1 kg omuxta emga 8 kun davomida.

2 jadval

Kurka gistomonozini davolashda sinovdan o‘tkazilgan dorilarning samaradorlik ko‘rsatgichlari.

№ Guruhlar	Guruhlar Nomi	Dorilar nomi	Dori dozasi (mg/kg emga)	Guruhdagi kurka jo‘jalar sooni	Guruhdagi jo‘jalarining saqlanishi, %	Dori berilgach invaziyaning intensivligi						Dorining samaradorligi %
						Tekshiruv kunlari (ootsistalar nusxa)						
						3 - kun	4 - kun	5 - kun	6 - kun	7 - kun	8 - kun	
1	Sog‘lom nazorat guruhi	-	-	5	100	-	-	-	-	-	-	-
2	Kasal nazorat guruhi	-	-	5	60	80	85	94	61	57	63	-
3	Tajriba guruhi	Metronidazol	500	5	100	15	17	25	6	2	1	98
4	Tajriba guruhi	furazolidon	500	5	100	19	21	28	7	3	2	96,5

2 - jadval malumoti bo‘yicha o‘tkazilgan davolash tadbirlarining samaradorligi yuqori bo‘lgan davolashdan keyin 3 - tajriba guruhidagi 5 bosh kurka jo‘jalarida gistomonadalar yagona nusxada qayd etildi, qo‘llanilgan metronidazol preparatining samaradorlik ko‘rsatgichi 98 % ni tashkil qildi; 4 – tajriba guruhidagi kurka jo‘jalarida ham gistomonadalar juda kam nusxalarda aniqlanib, qo‘llanilgan furazolidon preparatining samaradorligi 96.5 % ni tashkil etdi. Ayni paytda 2- kasal nazorat guruhidagi jo‘jalarda gistomonadalarning intensivligi doimiy saqlandi. 1- sog‘lom nazorat guruhidagi jo‘jalarda gistomonadalar mutlaqo qayd etilmadi.

OLINGAN NATIJALAR MUHOKAMASI

Kurkalar uy parrandalari orasida invazion kasalliklarga chalinish moyilligi yuqori. To‘la qiymatsiz oziqlantirish, parvarishlashning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, etarli darajada veterinariya sanitariya tadbirlarining o‘tkazilmasligi kurkalar orasida gistomonoz kasalligining asosiy sabablaridan biri bo‘ladi. Kasallikni profilaktikasi uchun quyidagi veterinariya sanitariya tadbirlari hamda kurkalarni asrash va oziqlantirish qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- Turli yoshdagi kurka va ularning jo‘jalarini o‘z guruxlari bo‘yicha asrash;
- Har xil turdagi parrandalarni birgalikda asramaslik;

- Kurka jo'jalarini parrandaxonada o'zaro zich saqlamaslik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Gistomonoz kasalligining rivojlanishi mono yoki aralash invaziya holatlarida kuzatiladi. Kurkalar orasida uchrovchi gistomonoz va boshqa invaziyalarning tarqalishini oldini olish o'z vaqtida o'tkaziladigan veterinariya profilaktik tadbirlarining va oziqlantirish, saqlash sharoitlarining yaxshilanishi orqali erishish mumkin. Kurkalar orasida keng tarqalgan gistomonoz kasalligini davolash va oldini olish uchun Metronidazol dorisini 0.5 gr 1 kg omuxta emga va Furazolidonni 0.5 gr 1 kg omuxta emga 8 kun davomida qo'llash yuqori samaradorlikka ega. Ushbu preparatlarning qo'llanilishi natijasida invaziyaning intensivligi keskin kamayadi va davolash natijasi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

5. Bakulin V.A. Bolezni ptits. – Sankt-Peterburg, 2006.
6. Bessarabov B.F. i dr. Bolezni ptits, - Moskva: "Lan", 2007.
7. Davlatov R.B., Salimov X.S., Xudjamshukurov A.N., Parranda kasalliklari, O'quv qo'llanma. – Samarqand: "Zarafshon", 2018
8. YAkunin.K.A. Avtoreferat dissertatsii po veterinarii na temu Patomorfologiya i differensialnaya diagnostika gistomonoza kur.Saratov2000
9. Рустамов, Б. С., & Давлатов, Р. Б. (2021). КУРКАЛАР ГИСТОМОНОЗИНИ ДАВОЛАШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШДА ВИТАМИНЛИ КОМПЛЕКСЛАРНИ СИНОВДАН ЎТКАЗИШ. ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА, 1(2).
10. Davlatov, R. (2022). KURKA ASKARIDIOZINI DAVOLASHDA ANTIGEL'MINTIKLARNI SINOVDAN O'TKAZISH. Scienceweb academic papers collection.
11. Davlatov, R. (2021). KURKALAR GISTOMONOZINI DIAGNOSTIKASI, DAVOLASH VA OLDINI OLIH BO YICHA TAVSIYALAR. Scienceweb academic papers collection.
12. Davlatov, R. (2021). КУРКАЛАР ГИСТОМОНОЗИНИ ТАРҚАЛИШИ ВА ДАВОЛАШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ДОРИЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Scienceweb academic papers collection.
13. Davlatov, R. (2020). Куркалар гистомонози ва унинг дифференциал диагностикаси. Scienceweb academic papers collection.
14. Davlatov, R. (2020). Kurkalar gistomonozi va uning kimyoprofilaktikasi. Scienceweb academic papers collection.
15. Davlatov, R. (2017). КУРКАЛАРНИ АСРАШ ВА ОЗИҚЛАНТИРИШ. Scienceweb academic papers collection.

16. Davlatov, R. (2019). Kurkalar gistomonozining kechishi va ayrim epizootologik xususiyatlari. Chorvachilik hamda veterinariya sohalarida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va muammolar I qism.
17. Рустамов, Б. С., & Давлетов, Р. Б. (2019). СПЕЦИФИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ ПРЕПАРАТОВ ПРИ ГИСТОМОНОЗЕ ИНДЕЕК. In СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК (pp. 116-119).
18. Рустамов, Б. С., & Давлатов, Р. Б. (2021). КУРКАЛАР ГИСТОМОНОЗИНИ ДАВОЛАШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШДА ВИТАМИНЛИ КОМПЛЕКСЛАРНИ СИНОВДАН ЎТКАЗИШ. ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА, 1(2).
19. Rustamov, B. S., & Davlatov, R. B. Prevalence and Treatment of Turkeys Histomonosissamarkand Institute of Veterinary Medicine. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 1, 1-5.
20. Рустамов, Б. С. (2021). Эффективное средство профилактики и лечения гистомоноза индейки.
21. Рустамов, Б. С. (2023). КУРКАЛАР АСКАРИДИОЗИНИНГ УЧРАШИ ҲАМДА ГЕЛЬМИНТСИЗЛАНТИРИШДА АНТИГЕЛЬМИНТИКЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 14(5), 135-142.